



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA'LIM, FAN VA
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI

“PSIXOLOGIK TADQIQOTLARDA MUAMMOLAR, YUTUQLAR, INNOVATSIYALAR”

mavzusidagi

**RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY
KONFERENSIYASI**



2024-yil, 22-noyabr

www.buxdu.uz

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI

PSIXOLOGIYA KAFEDRASI

**PSIXOLOGIK TADQIQOTLARDA MUAMMOLAR, YUTUQLAR,
INNOVATSIYALAR**

**RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY ANJUMAN
2024-yil 22-noyabr**

O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi "2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-son Farmoni, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktyabrdagi "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-5847-sonli Farmoni, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Ma'muriy islohotlar doirasida oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar sohasida davlat boshqaruvini samarali tashkil qilish chora-tadbirlari to'g'risida" 2023-yil 4-iyuldagi PQ-200-son qarori 9-bandiga asosan xalqaro ilmiy-texnik hamkorlik ko'lamini kengaytirishga qaratilgan xalqaro va respublika miqyosdagi ilmiy anjumanlar, simpoziumlar, seminarlar va boshqa ilmiy hamda ilmiy-texnik tadbirlarning o'z vaqtida samarali o'kazilishini hamda Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2024-yil 20-martdagi 76-sonli buyrug'i ijrosini ta'minlash maqsadida 2024-yilning 22-noyabr kuni Buxoro davlat universitetida **"PSIXOLOGIK TADQIQOTLARDA MUAMMOLAR, YUTUQLAR, INNOVATSIYALAR"** mavzusida Respublika ilmiy-amaliy anjuman o'tkazildi.

Respublika ilmiy-amaliy anjumani asosiy maqsadi - psixologiya sohasidagi tadqiqotlarni yanada yuqori bosqichga olib chiqish va ushbu yo'nalishdagi yangi ilmiy tadqiqotlar bilan yaqindan tanishish, ularni amaliyotga tatbiq qilish, psixologiya fanlarini o'qitishda zamonaviy psixologik va information texnologiyalardan samarali foydalanish, yoshlarni milliy g'urur va ma'naviy fazilatlarga tayanadigan barqaror axloqiy-ruhiy holatni ta'minlash, murakkab vaziyatlarga shaxsning bardoshlilikni, yuksak hislarni tarbiyalash hamda ilmiy, innovatsion, pedagogik faoliyatida psixologik xizmatni ko'rsatish va tegishli mutaxassislarning bilim va ko'nikmalarini mustahkamlashdan iboratdir.

Anjuman materiallaridan oliy ta'lim muassasalari talabalari, magistrlar, doktorantlar va professor-o'qituvchilar foydalanishi mumkin.

TAHRIR HAY'ATI:

Xamidov O.X. – Buxoro davlat universiteti rektori, iqtisodiyot fanlari doktori, professor;
Rasulov T.H. – fizika-matematika fanlari doktori, professor;
Nazarov A.M. – psixologiya fanlari doktori, professor;
Chudakova V.P. - psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent;
Müşerref D.- psikologik bilimlar adayı, professor;
Trushina I.A. - pedagogika fanlari nomzodi, dotsent;
Zabelina E.V. - psixologiya fanlari doktori, dotsent;
Leonova V.O. - psixologiya fanlari nomzodi, dotsent;
Kozubtsov I.N. - pedagogika fanlari doktori, dotsent;
Amarasena J. – Buxoro innovatsiyalar universiteti prorektori;
Xusainova T.M. - sotsiologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD);
Barotov Sh.R. – psixologiya fanlari doktori, professor;
Huseynova A.A. – falsafa fanlari doktori, professor;
Abdullayeva B.S. – psixologiya fanlari doktori, professor;
Akramova F.A. – psixologiya fanlari doktori, professor.

Maqolalarning to'g'ri va aniqligiga mualliflar mas'uldir.

**© PSIXOLOGIK TADQIQOTLARDA MUAMMOLAR, YUTUQLAR,
INNOVATSIYALAR**

Konferensiya materiallari to'plami Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2024-yil 20-martdagi 76-sonli buyrug'i bilan nashrga tavsiya etilgan.

kamaytiradi, ota-onalarning vaziyatni ongli qabul qilishiga va sog'lom qaror qabul qilishiga yordam beradi. Shu bois, prenatal tashxis natijalari e'lon qilinganidan so'ng darhol psixologik maslahat va zarur ko'makni taklif etish eng samarali mexanizmlardan biri sifatida e'tirof etilgan.

Prenatal tashxis natijalarining ota-onalarga psixologik ta'siri bo'yicha olib borilgan tadqiqotlar bu masalaning murakkab va dolzarb ekanligini ko'rsatmoqda. Ushbu ta'sirni yumshatish va ota-onalarni qo'llab-quvvatlash uchun kompleks psixologik yordam tizimini shakllantirish, tibbiy va psixologik xizmatlar o'rtasida uzviy hamkorlikni ta'minlash zarur. Kelgusida ushbu yo'nalishda keng qamrovli tadqiqotlar olib borish va zamonaviy yondashuvlarni ishlab chiqish prenatal tashxis jarayonining psixososial jihatlarini yanada takomillashtirishga xizmat qiladi.

Xulosa. Prenatal tashxis natijalarining ota-onalarga psixologik ta'siri masalasi ko'plab ilmiy tadqiqotlar va amaliy kuzatuvlar natijasida dolzarb va ko'p qirrali muammo sifatida tan olingan. Tadqiqotlar shuni ko'rsatdiki, prenatal tashxis natijasida aniqlangan nuqsonlar ota-onalarda kuchli stress, xavotir, depressiya va emotsional beqarorlik holatlarini keltirib chiqarishi mumkin. Bunday holatda ota-onalar nafaqat o'z farzandining kelajagi, balki oilaviy hayoti, ijtimoiy mavqei va psixologik farovonligi haqida ham chuqur xavotirga tushadilar. Prenatal tashxis natijalarining psixologik ta'siri qaror qabul qilish jarayoniga ham bevosita ta'sir ko'rsatadi, shu sababli ota-onalarni emotsional va axborot nuqtayi nazaridan kompleks qo'llab-quvvatlash zarurati yuzaga keladi.

Psixologik yordam ko'rsatish mexanizmlarini shakllantirish prenatal tashxis jarayonining ajralmas qismi bo'lishi kerak. Psixologik maslahat, emotsional yordam guruhlar, individual va oilaviy terapiya, stressni kamaytirish treninglari ota-onalarning ruhiy barqarorligini tiklashda va sog'lom qaror qabul qilishga yordam berishda muhim rol o'ynaydi. Tibbiy va psixologik mutaxassislar o'rtasida uzviy hamkorlikni yo'lga qo'yish orqali prenatal tashxis jarayonining psixososial oqibatlarini yengillashtirish mumkin.

Prenatal tashxis natijalarining ota-onalarga psixologik ta'sirini yumshatish, ularning emotsional salomatligini saqlash va ijobiy qaror qabul qilishiga ko'maklashish zamonaviy tibbiy amaliyotning muhim vazifalaridan biridir. Ushbu yo'nalishda tizimli psixososial yordam dasturlarini ishlab chiqish va keng joriy etish sog'lom jamiyat shakllanishiga xizmat qiladi.

Adabiyotlar ro'yxati

1. Allakhverdov V.M. Psixologiya geneticheskogo konsul'tirovaniya. – Moskva: Nauka, 2017.
2. Ahmedova D.R. Prenatal diagnostika va genetik maslahat asoslari. – Toshkent: Tibbiyot, 2020.
3. Yusufbekova M.I. Tug'ma nuqsonlarning oldini olishda ona salomatligining ahamiyati. – Toshkent: Tibbiyot, 2023.
4. Alimova M.A. Homiladorlik davrida psixologik salomatlikni saqlash strategiyalari. – Toshkent: Innovatsiya, 2022.
5. Rashidov A.Q. Tibbiyot genetikasining dolzarb masalalari. – Toshkent: Tibbiyot, 2019.
6. Zaferov A.M. Reproduktiv salomatlik va genetik xavfsizlik. – Moskva: Meditsina, 2016.

OG'ISHGAN XULQLI O'QUVCHILARDA IJTIMOIIY MAS'ULIYATNI SHAKLLANTIRISHDA INTERFAOL TARBIYAVIIY TEXNOLOGIYALARNING SAMARADORLIGI

Rahmonova Muhtaram Ergashevna
Mustaqil tadqiqotchi

***Annotatsiya.** Mazkur maqolada og'ishgan xulqli o'quvchilarda ijtimoiy mas'uliyatni shakllantirishda interfaol tarbiyaviy texnologiyalarning samaradorligi ilmiy-nazariy va amaliy jihatdan tahlil etilgan. Interfaol metodlarning psixologik-pedagogik asoslari, ularning tarbiyaviy jarayondagi o'rni va ta'siri yoritilgan. Tadqiqot natijalari asosida, og'ishgan xulqli*

o'quvchilarning ijtimoiy faolligini oshirish, muomala madaniyatini rivojlantirish hamda ijtimoiy mas'uliyat hissini kuchaytirishda samarali bo'lgan interfaol usullar tavsiflab berilgan.

Kalit so'zlar: *og'ishgan xulq, ijtimoiy mas'uliyat, interfaol tarbiya, pedagogik texnologiyalar, o'quvchi shaxsi, tarbiyaviy metodlar*

Аннотация. *В данной статье научно-теоретически и практически проанализирована эффективность интерактивных образовательных технологий в формировании социальной ответственности у учащихся с отклоняющимся поведением. Освещены психолого-педагогические основы интерактивных методов, их роль и влияние в воспитательном процессе. На основе результатов исследования описаны интерактивные методы, эффективные в повышении социальной активности учащихся с отклоненным поведением, развитии культуры общения и усилении чувства социальной ответственности.*

Ключевые слова: *отклоняющееся поведение, социальная ответственность, интерактивное воспитание, педагогические технологии, личность учащегося, воспитательные методы*

Abstract. *In this article, the effectiveness of interactive educational technologies in the formation of social responsibility in students with deviant behavior is analyzed from a scientific-theoretical and practical point of view. The psychological and pedagogical foundations of interactive methods, their role and influence in the educational process are highlighted. Based on the research results, interactive methods that are effective in increasing the social activity of students with deviant behavior, developing a culture of communication, and strengthening a sense of social responsibility are described.*

Keywords: *deviant behavior, social responsibility, interactive education, pedagogical technologies, student personality, educational methods*

Kirish. Hozirgi davrda jamiyatda yuzaga kelayotgan murakkab ijtimoiy-iqtisodiy o'zgarishlar, globallashuv jarayonlari, axborot texnologiyalarining jadal rivojlanishi yoshlarda ijtimoiy moslashuvchanlik, ijtimoiy mas'uliyat va fuqarolik ongini shakllantirishni taqozo etmoqda. Ayniqsa, og'ishgan xulqli o'quvchilarning ijtimoiy hayotga to'laqonli integratsiyalashuvi va ularning sog'lom shaxs sifatida shakllanishida ta'lim-tarbiya tizimi oldida dolzarb vazifalar turibdi.

Og'ishgan xulqli o'quvchilar – bu jamiyatda ma'naviy-axloqiy qadriyatlarga zid harakatlar sodir etgan, muayyan sabablarga ko'ra salbiy ijtimoiy muhit ta'sirida tarbiyalangan yoki e'tibordan chetda qolgan yoshlar hisoblanadi. Ularni ijtimoiy hayotga qayta jalb etish, ijobiy shaxsiy sifatlarni rivojlantirish, mas'uliyat hissini uyg'otish nafaqat pedagoglarning, balki jamiyatning har bir a'zosining diqqat markazida bo'lishi lozim.

Shu nuqtai nazardan, interfaol tarbiyaviy texnologiyalardan foydalanish og'ishgan xulqli o'quvchilar bilan ishlashda yuqori samaradorlikka ega bo'lishi mumkin. Bunday yondashuvlar o'quvchilarda o'z fikrini erkin ifoda etish, o'zini tahlil qilish, boshqalarning fikriga hurmat bilan yondashish, ijtimoiy faollik va javobgarlik kabi sifatlarni shakllantiradi. Interfaol metodlar orqali tarbiyaviy jarayonni shaxsga yo'naltirilgan, demokratik va ochiq muloqotga asoslangan tarzda tashkil etish og'ishgan xulqli o'quvchilarni ijtimoiy-psixologik moslashuvga tayyorlashga xizmat qiladi.

Mazkur maqolada og'ishgan xulqli o'quvchilarda ijtimoiy mas'uliyatni shakllantirishda interfaol tarbiyaviy texnologiyalarning o'rni, ularning samaradorligi hamda amaliyotga tatbiq etish mexanizmlari ilmiy-nazariy va amaliy jihatdan tahlil qilinadi.

Mavzuning dolzarbligi. Yosh avlod tarbiyasi har qanday jamiyatning barqaror rivojlanishi va istiqboli uchun muhim omil hisoblanadi. Ayni paytda globallashuv, axborot oqimining kuchayishi, ijtimoiy tarmoqlarning ta'siri, oilaviy muammolar va maktab bilan hamkorlikdagi uzilishlar natijasida ba'zi o'quvchilar og'ishgan xulq-atvorni namoyon eta boshlamoqda. Ular orasida maktab ichki tartib-qoidalariga rioya qilmaslik, tajovuzkorlik, beparvolik, jamiyat me'yorlariga zid harakatlar kabi holatlar kuzatilmoqda. Bunday xatti-harakatlar nafaqat

o'quvchining o'ziga, balki uning sinfdoshlari, o'qituvchilari va atrof-muhitga salbiy ta'sir ko'rsatadi.

Shunday sharoitda og'ishgan xulqli o'quvchilarning ijtimoiy mas'uliyatini shakllantirish dolzarb masalaga aylanmoqda. Chunki bu toifa o'quvchilarni befarqlik, o'ziga bo'lgan ishonchsizlik, ijtimoiy rollarni anglamaslik, o'zini jamiyatda tutish qoidalarini bilmaslik singari muammolar qiyaydi. Ana shu kamchiliklarni bartaraf etish va ularda ijtimoiy faollik, mas'uliyat, shaxsiy pozitsiyani shakllantirish uchun yangicha, interfaol yondashuvlarni qo'llash zarurati tug'iladi.

Zamonaviy pedagogik texnologiyalar, xususan, interfaol tarbiyaviy metodlar o'quvchini tarbiya jarayonining faol ishtirokchisiga aylantirib, unda o'z fikrini bildirish, muammoni tahlil qilish, ijtimoiy rollarni sinovdan o'tkazish, qaror qabul qilish, o'z harakatlari uchun javobgarlikni his qilish kabi ko'nikmalarni rivojlantiradi. Bu esa, o'z navbatida, og'ishgan xulqli o'quvchilarning ijtimoiy muhitga ijobiy integratsiyalashuvi, ijtimoiy mas'uliyat hissining shakllanishi va kelajakda faol fuqaro sifatida shakllanishiga xizmat qiladi.

Bundan tashqari, O'zbekiston Respublikasi "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni, "Yoshlarga oid davlat siyosati" konsepsiyasi, "Ma'naviyat va ma'rifat" targ'ibotlari, shuningdek, Prezident qarorlari va farmonlarida yoshlarning ma'naviy-axloqiy kamoloti, ijtimoiy faolligi va sog'lom turmush tarzini shakllantirish masalalari ustuvor yo'nalishlar sifatida belgilangan. Bu esa ushbu tadqiqot mavzusining ilmiy-nazariy va amaliy jihatdan dolzarbligini yanada oshiradi.

Shu boisdan, og'ishgan xulqli o'quvchilarda ijtimoiy mas'uliyatni shakllantirishda interfaol tarbiyaviy texnologiyalarni qo'llash hozirgi ta'lim tizimining dolzarb, zarur va ijtimoiy ahamiyatga ega yo'nalishlaridan biri hisoblanadi.

Adabiyotlar tahlili. Og'ishgan xulqli o'quvchilarning tarbiyasi, ularning ijtimoiy hayotga moslashuvi va mas'uliyat hissining shakllanishi muammolari pedagogika va psixologiya fanida keng tadqiq etilgan yo'nalishlardan biridir. Mazkur masalada A. Avloniy, M. Mahmudov, H. Yo'ldoshev, M. X. To'raqulov, Sh. A. Amonov kabi o'zbek pedagog olimlarining asarlarida yoshlar tarbiyasining ma'naviy-axloqiy asoslari, tarbiyaning shaxsga yo'naltirilgan modeli va ijtimoiy moslashuv masalalari yoritib o'tilgan. Ayni paytda xorijiy olimlardan J. Dewey, L.S. Vigotskiy, K. Rogers, A. Bandura va B.F. Skinnerlarning ijtimoiy o'rganish nazariyalari, shaxsiy taraqqiyotga oid yondashuvlari ham bugungi tadqiqot uchun nazariy-metodik asos bo'lib xizmat qiladi.

Interfaol metodlarning tarbiyaviy imkoniyatlari haqida esa Z. Mamarasulova, S. Isroilova, A. Haydarova, I. Alimov singari zamonaviy o'zbek tadqiqotchilari tomonidan qator ilmiy maqola va uslubiy qo'llanmalar tayyorlangan. Ularning ishlari asosida interfaol metodlar orqali o'quvchilar shaxsiy faolligini oshirish, ijtimoiy mas'uliyat va fuqarolik ongini shakllantirish bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Tahlil qilingan adabiyotlar shuni ko'rsatadiki, og'ishgan xulqli o'quvchilar bilan ishlashda an'anaviy metodlar ko'p hollarda yetarli samara bermaydi. Shu sababli, ta'lim-tarbiyada interfaol texnologiyalarga asoslangan, o'quvchini faol subyekt sifatida rivojlantiruvchi yondashuvlar dolzarb va samarali hisoblanadi.

Tadqiqotning metodologik asosi sifatida quyidagi yondashuvlar tanlandi:

Shaxsga yo'naltirilgan yondashuv – o'quvchi shaxsini tarbiyaning markaziga qo'yish, uning ehtiyojlari, qiziqishlari, individual xususiyatlarini inobatga olgan holda tarbiyaviy jarayonni tashkil qilish.

Ijtimoiy-pedagogik yondashuv – o'quvchining ijtimoiy muhitga integratsiyalashuvini ta'minlash, ijtimoiy rollarni anglatish va mas'uliyat hissini uyg'otish.

Faollashtiruvchi-interfaol yondashuv – tarbiyaviy jarayonda o'quvchini faollashtiruvchi, muloqotga kirishuvchi va mustaqil fikr yuritishga undovchi texnologiyalardan foydalanish.

Tadqiqot usullari:

Nazariy tahlil – mavzuga oid ilmiy manbalar, qonun hujjatlari, konsepsiyalar, ilg'or tajribalarni o'rganish.

So'rovnoma va suhbat usullari – og'ishgan xulqli o'quvchilar, ularning ota-onalari va pedagoglar bilan muloqot orqali mavjud muammolarni aniqlash.

Eksperimental ishlar – interfaol tarbiyaviy texnologiyalar asosida ishlab chiqilgan metodikani sinovdan o'tkazish.

Taqqoslash va tahlil – tajriba oldi va tajriba so'ngidagi natijalarni qiyoslab baholash.

Tadqiqotning maqsadi — og'ishgan xulqli o'quvchilarda ijtimoiy mas'uliyatni samarali shakllantirishda interfaol tarbiyaviy texnologiyalarning imkoniyatlarini aniqlash, amaliy metodik tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat bo'ldi.

Tadqiqot davomida og'ishgan xulqli o'quvchilarda ijtimoiy mas'uliyatni shakllantirishda interfaol tarbiyaviy texnologiyalardan foydalanishning samarali natijalari kuzatildi. Avvalo, bunday texnologiyalar yordamida o'quvchilarning tarbiyaviy jarayondagi ishtiroki faollashdi, ular o'z fikrini erkin ifoda etish, muammoni tahlil qilish, jamoa bilan ishlash, boshqalarga nisbatan empatiya bildirish kabi ijtimoiy jihatdan ahamiyatli ko'nikmalarga ega bo'la boshladi.

Tajriba-sinov ishlari shuni ko'rsatdiki, an'anaviy, monologik usullardan farqli ravishda, interfaol tarbiyaviy yondashuvlar o'quvchilarning diqqatini jalb qiladi, ularni faol tinglovchi va ishtirokchiga aylantiradi. Ayniqsa, "fikrlar almashinuvi", "rol o'ynash", "muammoli vaziyatni hal qilish", "debate" va "axloqiy tanlov" kabi metodlar orqali og'ishgan xulqli o'quvchilar o'z xatti-harakatlari ustida fikr yuritish, oqibatini tahlil qilish va ijtimoiy javobgarlikni anglash imkoniyatiga ega bo'ldilar.

Muhokama jarayonida o'quvchilarda quyidagi o'zgarishlar kuzatildi:

- ijtimoiy me'yor va qoidalarga nisbatan ongli munosabat shakllandi;
- maktab ichki tartiblariga nisbatan hurmat kuchaydi;
- jamoada o'z o'rnini topish va ijtimoiy rollarni bajarish ko'nikmalari rivojlandi;
- javobgarlik va o'z xatti-harakatlari uchun mas'uliyat hissi ortdi;
- og'zaki muloqot, nutq madaniyati va ijtimoiy moslashuv darajasi yaxshilandi.

Ushbu natijalar Z. Mamarasulova, A. Haydarova, Sh. Amonov kabi olimlarning interfaol metodlar orqali tarbiyaviy samaradorlikni oshirishga oid ilmiy ishlari bilan hamohangdir. Xususan, bu metodlar shaxsiy yondashuvga asoslangani, o'quvchi psixologiyasini inobatga olgani uchun og'ishgan xulqli o'quvchilar bilan ishlashda ayniqsa foydali bo'lib chiqdi.

Shu bilan birga, ayrim holatlarda interfaol metodlardan foydalanish pedagogdan yuqori darajadagi psixologik tayyorgarlik, individual yondashuv, vaqtni to'g'ri taqsimlash va muhitga qarab moslashuvchanlikni talab qilishi aniqlandi. Shuning uchun ham bu uslublarni qo'llashda tarbiyachi, psixolog va sinf rahbarining hamkorligi muhim ahamiyatga ega.

Umuman olganda, interfaol tarbiyaviy texnologiyalar og'ishgan xulqli o'quvchilarning ichki dunyosiga kirish, ularni ijtimoiy jihatdan faollashtirish va mas'uliyatli shaxs sifatida shakllantirishda kuchli tarbiyaviy vosita bo'lib xizmat qiladi.

Tadqiqot davomida og'ishgan xulqli o'quvchilarda ijtimoiy mas'uliyatni shakllantirishda interfaol tarbiyaviy texnologiyalarni qo'llash yuqori samaradorlikka ega ekani amaliy jihatdan isbotlandi. Quyidagi asosiy xulosalarga kelindi:

Interfaol tarbiyaviy metodlar — og'ishgan xulqli o'quvchilarning shaxsiy faolligini oshirish, ularni jamiyat me'yorlariga moslashtirish va ijtimoiy javobgarlikni anglashlariga xizmat qiluvchi muhim pedagogik vositadir.

Bunday o'quvchilar bilan ishlashda shaxsga yo'naltirilgan yondashuv, o'zaro muloqotga asoslangan metodlar (rol o'ynash, munozara, muammoli vaziyatni tahlil qilish, guruhlarda ishlash) orqali ularning ichki dunyosini ochish, o'zini anglashiga ko'maklashish va salbiy xatti-harakatlarni ijobiy tomonga yo'naltirish mumkin.

Interfaol metodlar orqali olib borilgan tarbiyaviy ishlar natijasida o'quvchilarda:

- o'z xatti-harakatlariga nisbatan tanqidiy munosabat;
- ijtimoiy rollarni anglash va bajara olish;
- jamoada ishlash va muloqot madaniyati;
- mas'uliyat va javobgarlik hissi shakllangani kuzatildi.

Tadqiqot shuni ko'rsatdiki, og'ishgan xulqli o'quvchilar bilan ishlashda faqat jazoga yoki nazoratga asoslangan yondashuvlar kutilgan natijani bermaydi. Aksincha, psixologik qo'llab-quvvatlash, ishonchli muloqot va faol ishtirokga undovchi metodlar ularning ongli o'zgarishiga sabab bo'ladi.

Pedagoglar, sinf rahbarlari va psixologlar o'zaro hamkorlikda interfaol metodlarni tizimli qo'llagan taqdirda, og'ishgan xulqli o'quvchilarning ijtimoiy moslashuvi va mas'uliyat hissi izchil shakllanadi.

Og'ishgan xulqli o'quvchilarda ijtimoiy mas'uliyatni shakllantirishda interfaol tarbiyaviy texnologiyalar samarali vosita bo'lib xizmat qiladi. Ular o'quvchilarning faolligini oshiradi, ijtimoiy me'yorlarni anglash, jamoaga moslashish, muomala va mas'uliyat hissini rivojlantiradi. An'anaviy yondashuvlardan farqli ravishda, interfaol metodlar shaxsga yo'naltirilganligi bilan ajralib turadi va pedagogik jarayonda barqaror ijobiy natijalarni beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.

- Avloniy A. Turkiy guliston yoxud axloq. – Toshkent: “Ma’naviyat”, 1992.
- Yo'ldoshev H. Tarbiyaviy texnologiyalar va pedagogik mahorat. – Toshkent: TDPU, 2006.
- Mamarasulova Z. Zamonaviy tarbiya texnologiyalari. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2019.
- Isroilova S. Pedagogik texnologiyalar asoslari. – Toshkent: TDPU, 2021.
- Haydarova A. O'quvchilar shaxsida ijtimoiy mas'uliyatni shakllantirish metodikasi // Pedagogika va psixologiya jurnali, 2020, №3.
- Dewey J. Experience and Education. – New York: Macmillan, 1938.
- Vigotskiy L.S. Educational Psychology. – Moscow: Prosveshchenie, 1983.
- Bandura A. Social Foundations of Thought and Action. – Englewood Cliffs, NJ: Prentice-Hall, 1986.

Sayitova Umida Hikmatillo qizi. YOSHLARNING INTERNETGA MUNOSABATINING IJTIMOY PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI.....	464
Hayitov Xurshid Xudoyqulovich. IQTISODIY MUNOSABATLARNI TARKIB TOPTIRISHDA PSIXOLOGIK USULLARNING TUTGAN AMALIY AHAMIYATI..	466
Raximova Mohira. NOGIRONLIGI BO'LGAN BOLALARNING TA'LIM JARAYONINING AHAMIYATI.....	471
Miralimov Mirjamol Yuldashevich. VOYAGA YETMAGANLARDA ANTISOTSIAL SHAXSIYATNING PSIXOLOGIK OMILLARI VA UNING JINOYAT XATTI-HARAKATLARIGA TA'SIRI.....	473
Azizova Saodat Xabibulloevna. ПУТИ РАЗВИТИЯ ПАЛОМНИЧЕСКОГО ТУРИЗМА В РЕСПУБЛИКЕ УЗБЕКИСТАН.....	477
Aminova Gulnoza Nasritdinovna. ZAMONAVIY MAKTABGACHA TA'LIM TARBIYACHILARINING KASBIY SALOHİYAT DARAJASI VA KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISH.....	480
Haydarov Latifjon Rustamovich. MUHANDIS-TEKNOLOGIYALARNING KASBIY VA SHAXSIY QOBILIYATLARINI RIVOJLANTIRISH METODIKASI.....	483
Козимова Нигора Абдукажоровна. ОСОБЕННОСТИ ОДИНОЧЕСТВА В УЧЕБНОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ СТУДЕНТОВ 1 КУРСА ВЫСШЕГО ОБРАЗОВАНИЯ.....	486
Muhammedova Muhayyo Karimovna TALABALARNING EKOLOGIK ONGINI SHAKLLANTIRISHGA TA'SIR ETUVCHI OMILLARNING IJTIMOY-PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI.....	489
Shukurova Gulnoz Muhammadovna. KICHIK MAKTAB YOSHIDAGI BOLALARDA AQLIY RIVOJLANISHNI QO'LLAB-QUVVATLASH PEDAGOGIK STRATEGIYALAR VA USULLAR.....	496
Salomova Nagiza Sattorovna. ZAMONAVIY TA'LIM MUHITIDA PEDAGOGNING SHAXSIY VA PROFESSIONAL KOMPETENSIYALARINI INTEGRATSIYA QILISHNING PSIXOLOGIK JIHATLARI.....	499
Каримов Жасур Бахриддин угли. ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ КАК ФАКТОР РАЗВИТИЯ ЛИЧНОСТИ СОТРУДНИКОВ ОВД.....	503
Курбонова Хаётгул Бахтиёрвна. ПЕДАГОГИКО-ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ АСПЕКТЫ РАЗВИТИЯ КРЕАТИВНОСТИ У ПОДРОСТКОВ С ПРОБЛЕМАМИ ПОВЕДЕНИЯ	504
Jo'rayev Qo'ldoshjon Ismatullo o'g'li. TALABALARDA MULOQOT KO'NIKMALARINI RIVOJLANTIRISH UCHUN PSIXOLOGIK VA PEDAGOGIK YONDASHUVLAR.....	507
Muratova Fotima Normaxmat qizi. TALABALIK DAVRIDA TALABA "POZITSIYA" SINI RIVOJLANTIRUVCHI OMILLAR.....	511
Malikzoda Abdulatif. BOKS SPORT TURIGA SELEKTSIYA PSIXOLOGIK TAYYORLIK OMILI SIFATIDA	513
Jabbarova Feruza Majidovna, BOSHLANG'ICH SINIF O'QITUVCHILARIDA PEDAGOGIK EMPATIYA VA EMOTSIONAL KOMMUNIKATSIYA USULBLARINING RIVOJLANISHIDAGI PSIXOLOGIK DETERMINANTLAR ...	516
Sharifova Maxliyo Zarif qizi, PRENATAL TASHXIS PSIXOLOGIYASINING IJTIMOY-PEDAGOGIK JIHATLARI: OTA-ONALARNI QO'LLAB-QUVVATLASH TIZIMINING ILMIY ASOSLARI	519
Rahmonova Muhtaram Ergashevna OG'ISHGAN XULQLI O'QUVCHILARDA IJTIMOY MAS'ULIYATNI SHAKLLANTIRISHDA INTERFAOL TARBIYAVIY TEXNOLOGIYALARNING SAMARADORLIGI.....	522

**PSIXOLOGIK TADQIQOTLARDA MUAMMOLAR, YUTUQLAR,
INNOVATSIYALAR**

***ILMIY-AMALIY ANJUMAN
TO'PLAMI***

Muharrir:	A.M.Nazarov
Texnik muharrir:	N.R.Axmadov
	Sh.O.Dehqonboyev

Nashriyot litsenziyasi AI № 178.08.12.2010
Adadi 10 nusxa. Buyurtma № 259. Hajmi 330 bet. Format A4. 2024-yil.

“Sadriddin Salim Buxoriy” MCHJ
«Durdona» nashriyoti: Buxoro shahri Muhammad Iqbol ko'chasi, 11-uy
“Sadriddin Salim Buxoriy” MCHJ bosmaxonasida chop etildi.